



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th October, 2025

TALABALARDA MUSIQIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA IJODNING O‘RNI XUSUSIDA

Safarov Akmal Umar o‘g‘li
e-mail: akmal-safarov-1993@mail.ru

Yunus Rajabiy nomidagi
O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
“Kompozitorlik, bastakorlik va
umumiy fortepiano” kafedrası o‘qituvchisi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarda musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ijodning o‘rni haqida fikr-mulohazalar keltirilgan. Ijodkorlik talabalarda musiqiy tafakkur, izlanish va ijodiy malakalarni o‘stirishi yoritilgan. Ijod va ijodkorlik tushunchalarining bir qancha olimlar tomonidan tadqiq etilganligi bayon etilgan. Musiqaning bir necha turlari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Musiqa, qobiliyat, ijod, musiqiy tafakkur, pedagogika, madaniyat, ma’rifat, uzluksiz ta’lim, iqtidor, g‘oya.

О РОЛИ ТВОРЧЕСТВА В РАЗВИТИИ МУЗЫКАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье представлен отзыв о роли творчества в развитии музыкальных способностей у студентов. Показано воздействие творчества на развитие у студентов музыкального мышления, исследования и творческие навыки. Утверждается, что концепции творчества и творчества были исследованы несколькими учеными. Отдельно рассматриваются несколько видов музыки.



Ключевые слова. Музыка, способности, творчество, музыкальное мышление, педагогика, культура, просвещение, непрерывное образование, одаренность, идея.

THE ROLE OF CREATIVITY IN THE DEVELOPMENT OF MUSICAL ABILITIES IN STUDENTS

Abstract

This article presents a review of the role of creativity in the development of musical abilities in students. It shows the impact of creativity on the development of students' musical thinking, research and creative skills. It is argued that the concepts of creativity and creativity have been studied by several scientists. Several types of music are considered separately.

Keywords. Music, abilities, creativity, musical thinking, pedagogy, culture, education, continuous education, giftedness, idea.

Kirish

Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalarida amalga oshirilayotgan modernizatsiyalash jarayonlari uzluksiz ta'lim tizimiga bevosita ta'sirini ko'rsatib, o'z navbatida zamonaviy ta'lim muhitining muhim tavsifi hamda shaxs iqtidori va mahoratini yuzaga chiqarish, talabalarning ijodkorlik faoliyatiga alohida e'tibor qaratgan holda takomillashtirish, uning tarkibiy qismlari funktsional va kontseptual muammolari yechimini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Kundan-kunga yangi innovatsion g'oyalar, pedagogik texnologiyalar, usullar, metodlar odimlab bormoqda. Sohani zamon bilan hamnafas holatdiligini ta'minlash – biz mutahassislarning vazifasi hisoblanadi.

Bugungi kunda jahonda ta'limga kompetentli yondashuv asosida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, pedagog kadrlarning musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ijodiy ta'lim jarayonining zamonaviy metodik ta'minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat sohalariga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish,



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econferences.com

30th October, 2025

shuningdek, oliy ta'limning ta'lim sifatini ta'minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda.

Yoshlar o'rtasida madaniyat va san'at asarlariga bo'lgan qiziqishni oshirish, ajdodlarimizdan me'ros bo'lib kelayotgan an'analarni targ'ib qilish, yosh iqtidorli ijodkorlarni vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va fidoiyluk ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi san'at turlarini yaratish hamda talabalarda musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish biz mutaxassislarining va pedagoglarning asosiy vazifamizdir.

Ijodkorlik talabalarda musiqiy tafakkur, izlanish va ijodiy malakalarni o'stirib borish uchun katta ahamiyatga ega. Hozirda o'sib ulg'ayayotgan yoshlarimiz orasida ham har tomonlama mukammal, yetuk, qobiliyatli ijodkorlar yo'q emas. Musiqa ijodkorligi sohasida ko'plab yoshlarimiz tahsil olib, keyinchalik musiqa pedagogikasi sohasida o'z faoliyatlarini davom ettirib kelmoqdalar. Qalbida musiqaga mehri bo'lgan insonlardan hech qachon yomonlik chiqmaydi. Ijodkor o'zi kim? Ijodkor bu – “yaratish”, “vujudga keltirish”, ya'ni, “ijod etuvchi”, “yuzaga keltiruvchi” degan ma'nolarni anglatadi.

Yosh avlodni yuksak madaniyatli, estetik didi yuqori darajada rivojlangan komil insonlar qilib tarbiyalashda musiqa ta'limining ahamiyati va o'rni beqiyosdir. Musiqa san'atimiz bu borada katta imkoniyatlarga egadir. Kelajagimiz bo'lgan bugungi kun yoshlarining badiiy va estetik tarbiyalashni takomillashtirish, ularda musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish musiqa va san'at maktablari, umumta'lim maktablar, akademik litsey, kollej va texnikumlar oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri ekanligidan dalolat beradi.

Mustaqil O'zbekistonning musiqa san'ati chuqur ildiz otgan. Mustaqillik paytida turli uslubdagi ijrochilik xalqimiz orasida turli ko'rinishda yoyilgan. Bu yo'nalishda kichikintoy bolajonlardan tortib yoshi ulug' insonlargacha faol ishtirok etib kelishmoqda. Jamiyat taraqqiyoti yo'lidagi inson farovonligini ta'lim-tarbiyasiz tasavvur qilish juda qiyin. Musiqa ta'limi insonlarni bir muncha tarbiyalaydi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, yaxshi musiqiy asar insonlarni yaxshilikka, ezgulikka, hamjihatlik va birdamlik bilan hamnafas yashashga undaydi.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th October, 2025

Musiqa ta'limida ta'lim va tarbiyani uzviy holda olib borish mumkin. Xalqni insoniylikka, mehr-muhabbatga yetaklaydi va yurtimiz tinchligini ta'minlashda ham o'z hissasini qo'shadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Hozirgi kunga kelib, musiqaning bir necha turlari va janrlari mavjud. Xattoki, ular alohida-alohida san'at turlari sifatida ajralib chiqqan va rivojlanib kelmoqda. Yosh avlodga shunday imkoniyatlar berilayotgan ekan, undan oqilona foydalanish va ishonchni oqlash zarur. Musiqa ta'limi gurkirab rivojlanishi biz pedagoglarning qo'lida.

Inson shaxsini har tomonlama uyg'un kamolotini ta'minlashda san'atning, musiqaning ahamiyati katta. San'at asarlari vositasida kishining badiiy dunyoqarashi kengayib, ma'naviyati shakllanadi. Ma'naviyatni shakllantirish davrning muhim vazifasi, uni hal etish nihoyatda dolzarbdir. Musiqa ta'limi vositasida musiqa madaniyatini, inson ma'naviyatini shakllantirishni izchil amalga oshirishda ta'lim maskanlarining roli juda katta.

Asosiy qism

Keyingi yillarda musiqa ta'limini yanada takomillashtirish, talabalarda musiqa, ijod va qobiliyatlarni rivojlantirish muammolariga bag'ishlangan qator darsliklar, ilmiy tadqiqotlar, uslubiy risolalar, o'quv dasturlar va qo'llanmalar yaratildi va yaratilmoqda. Bunda sohaning yetuk mutahassislaridan jahonda L.Burbo, S.L.Frank, V.A.Engelgardt, MDH olimlaridan Ye.Ya.Basin, N.A.Berdyayev, S.I.Bugrova, I.N.Efimova, A.M.Korshunov, o'zbek olimlaridan A.R.Aripdjanova, N.A.Baxritdinova, O.A.Vasilchenko, D.F.Jalolova, G.N.Ibragimova, S.S.Malikova, Q.T.Mirzayev, S.Rasuli, A.X.Xakimova, N.S.Sharafiyeva, Ch.T.Shokirova, B.V.Shomaxmudova, D.B.Yakubjanova, R.Qodirovlar bir qator izlanishlar olib borganlar. Biroq oliy ta'lim muassasalari talabalarida yetuk ijodkorlik to'liq rivojlangan deya olmaymiz.

L.Burboning "Emotsii, chuvstva i prosheniye" kitobida "Ijodiy qobiliyat insonlarga kerakli bo'lgan qandaydir yangilikni ochish yoki yaratish demakdir. Ilohiy ne'mat esa qobiliyat, iste'dod, daholikni tasodifan yuzaga keltiruvchi transtsendental hodisa, ilohiy ne'mat, ya'ni bu – "Xudo bergan" tuhfadir, - deb ta'riflanadi [1].



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th October, 2025

S.L.Frank “Har qanday inson u yoki bu darajada yaratuvchidir. Borliqning har qayerida ijod mavjud. Agar u insonning ichki muhitidan kelib chiqsa, har qanday hunarmand muhabbat va did bilan ishlaydigan bo‘ladi, ishga o‘z shaxsini qo‘shayotgan ma’noda ilhomlanib yangi ijod namunalarini yaratadi [2].

V.A.Engelgardtning fikricha, “Ijod... – san’atning mohiyati. U xuddi shu darajada fanning ham mohiyati hisoblanadi. Har ikki holatda ham insonning yaratish, ya’ni o‘zligini namoyon qilish qobiliyati muhim. Ilmiy kashfiyot xuddi san’at kabi, ijodkorning muayyan xususiyatlarini o‘zida saqlab qoladi va keyingi hayoti davomida butun insoniyat boyligiga aylanadi” [3].

Y.Y.Basin “Tvorchestvo i empatiya” nomli maqolasida “Ilmiy ijod shaxsning muhim belgisi – ratsional ko‘rish va faoliyatining namoyon bo‘lish shaklidir. Bu shunchaki hissiy qabul qilish yoki intellektual faoliyat emas, balki dunyoni shunday ko‘rishki, unda hissiyotlar, aql, tuyg‘ular uzviy jihatdan uyg‘unlashgan tarzda aks etadi”, - degan fikrni bildirgan [4].

N.A.Berdyayevning ta’kidlashicha, ijodning asosiy xususiyati – erkinlikdan iborat. Uning falsafasidagi o‘ziga xoslik eng avvalo, u ijodga borliqni emas, erkinlikni asos qilib olgan [5].

S.I.Bugrova “Ilmiy ijod insonning bevosita hayotiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, unga ko‘proq obyektivlik va tizimlilik xosdir”, - deya ta’kidlagan [6].

“Ijod bu – hayot mazmuni va haqiqatini izlash haqidagi o‘y”, - deydi I.N.Yefimova [7].

“Ijod bu subyektning obyekt bilan o‘zaro faol harakatidir. Bu jarayonda subyekt maqsadga yo‘naltirilgan holda atrof-olamni o‘zgartirib, obyektiv qonuniyatlar talabiga ko‘ra, yangi ijtimoiy ahamiyatdagi olamni yaratadi. Atrof-olamga ta’sir qilib, subyekt ham o‘z-o‘zini o‘zgartiradi”, - deydi A.M.Korshunov [8].

Talabalarning musiqiy-ijodiy rivojlanishlari uchun pedagog o‘zining ish faoliyatiga sidqidildan yondashib, darslarni yuksak metodik darajada o‘tilishini ta’minlashi lozim. Dars pedagogdan katta irodaviy kuch, izlanish, hozirjavoblik hamda turli pedagogik vaziyatlarga tezda munosabat bildirishini talab etadi. Samarasiz va omadsiz dars, kamchiliklar uzoq vaqt pedagogga orom, halovat bermaydi, ortga nazar solib uning sabablarini qidirishga ehtiyoj sezadi.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th October, 2025

Shu masalada G.G.Azizova o‘z tadqiqotlari natijasi sifatida quyidagi fikrlarni bildiradi: O‘qitish jarayonini mutlaqo innovatsion omilsiz tashkil etib bo‘lmaydi. Xorijdagi samarali metodlarni o‘rganish va ular asosida o‘qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, mamlakatimizda o‘qitishning yangi sifat o‘zgarishlarini amalga oshirish bosqichida talaba yoshlarni raqobatbardosh mutaxassislar sifatida mamlakat iqtisodiyotini o‘stirishga maqsadli tayyorlash bugungi kunning asosiy talabidir.

A.Azizqulov o‘z tadqiqotida “Ijod insonni yangi moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yaratishga qaratilgan murakkab ruhiy-ma’naviy faoliyatdir. Inson tomonidan tabiiy borliqni o‘zlashtirish va o‘zgartirish faoliyati faqat ijodiy yondashuv natijasida sodir bo‘ladi. Aynan, ijodkorlik faoliyati orqali inson tabiatdan ajralib chiqdi va uni o‘ziga bo‘ysundirdi”, - deya ta’kidlaydi.

Xulosa

Oliy ta’lim muassasalari talabalarida musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ularni har tomonlama, ham ma’naviy, ham madaniy, ham musiqiy bilimlar ruhida tarbiyalashimiz, ularni kelajakda yetuk mutaxassis va ijodkor pedagog bo‘lib yetishishlarini ta’minlamog‘imiz darkor. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishda barcha sohani mukammal tarzda o‘zlashtirishlari va o‘z faoliyatlari davomida qo‘lly olishlariga yetarlicha imkoniyat yaratib berish lozim.

Hozirda mamlakatimizda fan va ta’lim sohasida chuqur islohotlar olib borilmoqda. Ushbu imkoniyatlardan samarali va unumli foydalanib, sohaning yetuk mutaxassislari bo‘lib yetishmog‘imiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бурбо Л. Эмоции, чувства и прощение. – М.: ИД «София», 2007. – С.144.
2. Франк С.Л. Реальность и человек. Мыслители XX века. –М.: Республика, 1997. – С.294 .
3. Энгельгардт В.А.Познание явлений жизни. (Сер. Наука, мировоззрение, жизнь) – Москва: Азбука-классика, 2009. – С.210.
4. Басин Е.Я. Творчество и эмпатия. 1987/2, С.54.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th October, 2025

-
5. Бердяев Н.А. Самопознание. – М.: Книга, 1991. – С. 56-57.
 6. Бугрова С.И. Л.Н.Столович. Жизнь - творчество - человек: функции художественной деятельности. – М.: Политиздат, 1985 (1987, 5,). – С.172.
 7. Shermuxamedova N. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. T.2020. –B.114.
 8. Kavilova D.A. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish... diss... ped.fan.fal.dok. – B.88.